

## KORXONALARDA ASOSIY VOSITALARNING AMORTIZATSIYASI VA ULARNING SOLIQ HISOBI BILAN BOG'LIQLIGI

Abdumamatov Zuhridin Abdirasul o'g'li

Andijon davlat texnika instituti 4-bosqich

“Buxgalteriya hisobi va audit” yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15463290>

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda asosiy vositalarning amortizatsiyasini hisoblash usullari, ularning buxgalteriya va soliq hisobidagi farqlari, shuningdek, amalda ushbu farqlar korxonaning moliyaviy natijalariga qanday ta'sir qilishi yoritilgan. Amortizatsiya hisobining to'g'ri tashkil etilishi moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va soliq majburiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot davomida amaliy korxonada misolida hisob-kitoblar tahlil qilinib, asosiy vositalarni eskirish jarayonini belgilashning hisobiy va soliq yondashuvlari o'rganildi.

**Kalit so'zlar:** asosiy vositalar, amortizatsiya, eskirish, buxgalteriya hisobi, soliq hisobi, amortizatsiya stavkasi, moliyaviy natija, amortizatsiya usullari.

Asosiy vositalar korxonada ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va xo'jalik faoliyatini yuritish uchun mo'ljallangan, uzoq muddatli foydalaniladigan moddiy aktivlardir. Ularning qiymati vaqt o'tishi bilan tabiiy eskirish, texnologik yangilanishlar, iqtisodiy omillar ta'sirida kamayadi. Ushbu eskirish jarayoni amortizatsiya orqali buxgalteriya va soliq hisobida aks ettiriladi. Amortizatsiya faqat buxgalteriyadagi hisobiy harakat bo'lib qolmasdan, balki soliq yuki va korxonada foydasiga bevosita ta'sir etuvchi omildir. Korxonalarda amortizatsiyani qanday usulda hisoblash, uni buxgalteriya va soliq hisobotlarida qanday aks ettirish lozimligi bo'yicha normativ-huquqiy asoslar mavjud. Biroq amaliyotda bu ikki hisob turida qo'llaniladigan yondashuvlar o'rtasidagi tafovutlar ko'pincha moliyaviy natijalarning tahliliga va soliq bazasining aniqligiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, ushbu mavzu buxgalterlar, auditorlar va moliyachilar uchun dolzarb va nazariy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Asosiy vositalar qiymatini eskirish davri davomida teng yoki har xil miqdorda xarajatlar sifatida hisobdan chiqarish amortizatsiya deb ataladi. Amortizatsiyani hisoblashda turli yondashuvlar mavjud: chiziqli (to'g'ri chiziqli), kamayuvchi qoldiq usuli, ishlab chiqarish hajmiga asoslangan usul va boshqa ko'rinishlar. O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobida xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (MHXS – IFRS) yaqinlashish jarayoni ketmoqda va bu jarayonda amortizatsiyani chiziqli usul asosida hisoblash keng tarqalgan. Buxgalteriya hisobida amortizatsiya xarajatlar tarkibida ko'rsatiladi va bu orqali foyda va zararlar hisobiga ta'sir qiladi. Soliq hisobida esa amortizatsiya maxsus normativ hujjatlar – O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga asoslanadi. Soliq hisobi amortizatsiyani faqat qonun bilan belgilangan stavkalar asosida, tegishli asosiy vositalar guruhlariga qarab ajratishni talab etadi. Ushbu stavkalar ba'zan buxgalteriya hisobidagidan farq qiladi, bu esa soliq yuki va foyda ko'rsatkichlariga ta'sir qiladi. Bu farqlarni aniqlash va tahlil qilish – moliyaviy hisobotlarni to'g'ri tuzish, soliqqa tortiladigan bazani aniq belgilash va soliq organlari oldida hisobotlarning shaffofligini ta'minlash uchun zarur.

Amortizatsiya hisobining korxonadagi moliyaviy va soliq natijalariga ko'rsatadigan ta'sirini real amaliyot misolida chuqur o'rganish asosiy vositalar hisobini yanada chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Bunda, ayniqsa, buxgalteriya va soliq hisobida amortizatsiya ajratish

tartibidagi tafovutlar asosiy ahamiyat kasb etadi. Misol tariqasida Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonasi uch yillik buxgalteriya va soliq hisob ma'lumotlari tahlil qilindi. Korxonada balansida qayd etilgan asosiy vositalarning umumiy qiymati 5,3 milliard so'mni tashkil qiladi, ularning tarkibiga ishlab chiqarish uskunalari, transport vositalari, bino-inshootlar, mehnat qurollari va boshqa texnik vositalar kiradi. Bu vositalarning hisobda aks ettirilishi uchun korxonada chiziqli amortizatsiya usulidan foydalangan bo'lib, buxgalteriya hisobida yiliga 10% stavka asosida ajratmalar belgilangan. Buxgalteriya hisobotlarida asosiy vositalar eskirish summasi 2022-yilda 530 million so'm, 2023-yilda 545 million so'm va 2024-yilda 560 million so'mni tashkil etgan. Bu ajratmalar har yili ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida aks ettirilgan va foyda ko'rsatkichlarini kamaytirgan.

Soliq hisobida esa boshqa yondashuv qo'llangan: Soliq kodeksiga muvofiq ravishda, asosiy vositalar toifalarga ajratilib, har bir toifa uchun qonun bilan belgilangan amortizatsiya stavkalari asosida ajratmalar amalga oshirilgan. Masalan, ishlab chiqarish uskunalari 15% stavka, bino-inshootlarga 5% stavka, transport vositalariga esa 20% stavka qo'llanilgan. Shu sababli soliq hisobida ajratilgan eskirish summasi buxgalteriya hisobidagidan farq qilgan. 2022-yilda soliq hisobi bo'yicha amortizatsiya summasi 470 million so'mni, 2023-yilda 510 million so'mni va 2024-yilda esa 495 million so'mni tashkil etgan. Bu esa buxgalteriya foydasi va soliqqa tortiladigan foyda o'rtasida muayyan tafovutlar yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Masalan, 2023-yilda korxonaning buxgalteriya foydasi 1,2 milliard so'm bo'lgan bo'lsa, soliq hisobi bo'yicha amortizatsiya xarajatlari kamayganligi sababli soliqqa tortiladigan foyda 1,25 milliard so'mni tashkil qilgan. Natijada 50 million so'm qo'shimcha soliqqa tortish bazasi yuzaga kelgan va korxonada 12,5% stavkada 6,25 million so'm ortiqcha foyda solig'i to'lagan.

Ushbu tafovutlar amalda soliq yukining oshishiga olib kelgan bo'lsa-da, buxgalteriya va soliq hisobining har xil yondashuvlarda yuritilishi qonuniy asoslangan. Shu bilan birga, bu holat moliyaviy menejerlar va bosh buxgalterlar uchun soliq rejalashtirishda ehtiyotkorlikni, buxgalteriya hisobotlari va soliq deklaratsiyalari o'rtasida farqlarni chuqur tahlil qilishni talab etadi. Amortizatsiya ajratmalari ko'plab korxonalar uchun "nol" naqd xarajatlarni turiga kiradi, ya'ni bu xarajatlarni real pul chiqimi bo'lmagan holda foyda va soliqqa tortish bazasiga ta'sir qiladi. Shu sababli korxonalar amortizatsiyani maksimal darajada samarali rejalashtirish, amortizatsion siyosatni soliq va buxgalteriya hisobi o'rtasida muvozanatda olib borish orqali nafaqat real foyda ko'rsatkichlarini aniqlaydi, balki soliqqa tortish bo'yicha optimal sharoitni shakllantira oladi.

Bundan tashqari, tahlillar asosiy vositalarni qayta baholash yoki hisobdan chiqarish jarayonlarida ham buxgalteriya va soliq yondashuvlari o'rtasidagi tafovutlar saqlanishini ko'rsatdi. Buxgalteriya hisobida aktiv qayta baholangan holda amortizatsiya qiymati yangilanadi, soliq hisobida esa faqat asosiy vositalarning dastlabki qiymati va normativ stavkasi asosida hisoblash davom ettiriladi. Bu esa eskirish darajasining real moliyaviy ahvolda to'liq mos kelmasligiga olib keladi. Shu bois, korxonada menejment bu tafovutlarni oldindan prognozlab, buxgalteriya siyosatini shunday yo'lga qo'yishi kerakki, moliyaviy shaffoflik, hisobotlarning haqqoniyligi va soliq intizomi o'rtasida muvozanat ta'minlansin.

Asosiy vositalarning amortizatsiyasi korxonaning buxgalteriya va soliq hisobi tizimida muhim hisoblanadi. Buxgalteriya hisobida u foyda va zararlarni aniqlashda asosiy omil bo'lsa, soliq hisobida esa soliq bazasini belgilovchi mezondir. Ushbu ikki yondashuv o'rtasidagi farqni chuqur tushunish, korxonaning moliyaviy barqarorligini saqlash, soliq yukini rejalashtirish va

solix organlari bilan munosabatlarni shaffof olib borishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, har bir korxonada buxgalteriya va solix hisobini uyg'unlashtirish, amortizatsiya hisobini aniq yuritish va moliyaviy va solix hisobotlar o'rtasida muvozanat saqlashni o'z strategik vazifalaridan biri sifatida belgilashi lozim.

### References:

#### Используемая литература:

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Solix kodeksi, 2020-yilgi tahrir.
2. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni.
3. IFRS (IAS) 16 – "Property, Plant and Equipment" xalqaro moliyaviy hisobot standarti.
4. Karimov A.A., Jo'raev R. – "Buxgalteriya hisobi va audit asoslari", Toshkent, 2022.
5. Rustamova D.X. – "Asosiy vositalarning amortizatsiyasi va solix hisobining xususiyatlari", Ilmiy maqola, 2023.
6. Moliya vazirligi buxgalteriya hisobiga oid uslubiy ko'rsatmalar – [www.mf.uz](http://www.mf.uz)